

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “KUZ XAZONI VA HIJRON ARO...” SHE’RIDA MUHABBAT VA AYRILIQ FALSAFASI

**Nurmaxmatova Furuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast namoyondasi, o‘zining o‘nlab she‘riy to‘plamlari, ssenariylari, tarjimalari bilan milliy adabiyotimiz ravnaqiga mislsiz hissa qo‘shgan, uning dovrug‘ini dunyoning turli burchaklarigacha ovoza qilgan atoqli arboblardan biri hisoblanadi. Shoir she‘riyatida tashqaridan oddiy ko‘rinadigan holatlar ham ko‘pincha ma‘naviy va ruhiy mazmuni o‘zida mujassamlashtirgan. Faynberg nazmida inson qalbining nozik tuyg‘ulari, ayriliq azobi, muhabbat qudrati va vaqtning beqarorligi o‘ziga xos poetik ohang bilan yoritiladi. Ijodkorning muhabbat xususida bitgan she‘rlari faqat romantik hislar jamlanmasidan iborat emas. U muhabbatni inson ruhiyatining eng murakkab va chuqur holati sifatida tasniflaydi. Bunday lirik parchalar aksariyat hollarda sog‘inch, hijron, vaqtning o‘tkinchiligi va ichki izzitirob uyg‘unlashib ketadi. Shoir muhabbatni baxt va dard birlashgan ruhiy kechinma sifatida ko‘rsatadi. Faynberg lirikasida tabiat manzaralaridan shu kabi nozik kechinmalarni ifodalashda keng foydalanadi. Ayniqsa, kuz manzarasi fonida muhabbat, ayriliq va inson ko‘nglining izzitiroblari ta‘riflangan bo‘lib, o‘zgacha timsollar orqali shoir ma‘naviy mazmun yaratadi. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Kuz xazoni va hijron aro” misralari bilan boshlangan she‘ridagi muhabbat va ayriliq falsafasini yoritishga bag‘ishlanadi.

**Kalit soʻzlar:** muhabbat falsafasi, ayriliq motivi, kuz timsoli, xazon obrazi, hijron, inson ruhiyati, falsafiy lirika, vaqt va oʻtkinchilik, sogʻinch, romantik kechinma, ichki monolog, ramziylik, poetik tafakkur, sevgi va iztirob.

**Abstract:** Alexander Arkadevich Feinberg is a prominent figure of 20th-century Uzbek literature, who made an incomparable contribution to the development of our national literature with his dozens of poetry collections, screenplays, and translations, and is considered one of the outstanding figures who made his legacy known to different corners of the world. In the poet's poetry, even seemingly ordinary situations often embody spiritual and spiritual content. Feinberg's poetry illuminates the delicate feelings of the human heart, the pain of separation, the power of love, and the instability of time with a unique poetic tone. The creator's poems about love are not just a collection of romantic feelings. He classifies love as the most complex and profound state of the human psyche. In most cases, such lyrical passages combine longing, anguish, the transience of time, and inner suffering. The poet describes love as a shows happiness and pain as a combined spiritual experience. In Feinberg's lyrics, natural landscapes are widely used to express such delicate experiences. In particular, love, separation, and the suffering of the human heart are described against the background of the autumn landscape, and the poet creates spiritual content through unique symbols. This article is devoted to illuminating the philosophy of love and separation in Alexander Arkadevich Feinberg's poem, which begins with the lines "Between Autumn Sorrow and Migration."

**Keywords:** philosophy of love, separation motif, autumn symbol, image of sorrow, migration, human psyche, philosophical lyrics, time and transience, longing, romantic experience, inner monologue, symbolism, poetic thought, love and suffering.

**Аннотация:** Александр Аркаевич Файнберг — выдающаяся фигура узбекской литературы XX века, внесший несравненный вклад в развитие национальной литературы своими многочисленными поэтическими сборниками, сценариями и переводами, и считающийся одной из самых известных фигур, чье наследие стало известно во всем мире. В поэзии поэта даже, казалось бы, обыденные ситуации часто

воплощают духовное и духовное содержание. Поэзия Файнберга освещает тонкие чувства человеческого сердца, боль разлуки, силу любви и изменчивость времени уникальным поэтическим тоном. Стихи поэта о любви — это не просто собрание романтических чувств. Он классифицирует любовь как самое сложное и глубокое состояние человеческой психики. В большинстве случаев такие лирические отрывки сочетают в себе тоску, муку, быстротечность времени и внутренние страдания. Поэт описывает любовь как сочетание счастья и боли, как духовный опыт. В лирике Файнберга широко используются природные пейзажи для выражения таких тонких переживаний. В частности, любовь, разлука и страдания человеческого сердца описываются на фоне осеннего пейзажа, а поэт создает духовное содержание посредством уникальных символов. Данная статья посвящена освещению философии любви и разлуки в стихотворении Александра Аркаевича Файнберга, которое начинается со строк «Между осенней скорбью и переселением».

**Ключевые слова:** философия любви, мотив разлуки, осенний символ, образ скорби, переселение, человеческая психика, философская лирика, время и быстротечность, тоска, романтический опыт, внутренний монолог, символизм, поэтическая мысль, любовь и страдание.

Aleksandr Faynbergning “Kuz xazoni va hijron aro...” misralari bilan boshlanuvchi she’rida ayriliq va muhabbat falsafasi chuqur lirik ohangda ifodalangan. Shoir kuz manzarasi va xazon timsoli orqali inson hayoti o’tkinchiligi hamda ruhiy iztiroblarni tasvirlaydi. She’r boshida lirik qahramon o’zini baxtli deb hisoblagani bejiz emas ekanini anglaydi, sababi hayotidagi hamma narsa beqaror. Biroq shu o’zgaruvchan dunyoda sevgan insoningning go’zalligi va qadri o’zgarmas deb ta’riflanadi.

Kuz xazoni va hijron aro

Baxtiyorman deganim bekor.

Hamma narsa beqaror, ammo

Faqat o‘zing go‘zalsan, dildor.

Behudaga cho‘zurman vaqtni

Ko‘zlaringda kulganda yulduz.

Boy berurman behuda baxtni,

Dilga sanchiladi juvoldo'z.

Navoda g‘am, g‘amda navo bor,

To‘xtab qoldi yugurik fursat.

Vidolashdik. Bizga bo‘ldi yor,

Ayriliqmas, faqat muhabbat.

She‘r davomini o‘qir ekanmiz,unda muhabbatdan tashqari ayriliq talqini ham keltirilganini ko‘ramiz.Lirik qahramon qalbida sevgi lahzalarini qadrlamasdan uni boy berganlik afsusi,alami hukm surmoqda.Bu afsus asarda yurakka sanchilgan og‘riq kabi tasvirlanadi.Shu orqali shoir muhabbat faqat quvonch emas,balki inson qalbini o‘yga solib qo‘yadigan dard ham ekanligini ta‘kidlab o‘tadi.

She‘r yakunida esa shoir juda ahamiyatli falsafiy xulosaga keladi:vidolashuv aslida muhabbatning so‘nggi nuqtasi emas.Ayriliq ham muhabbatning bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi.Shu sababli she‘rda ayriliq fojeasi emas,balki muhabbatning davomiyligini anglatadigan ruhiy holat sifatida ko‘rsatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki,Aleksandr Faynbergning ushbu she‘ri muhabbat,ayriliq va inson qalbidagi murakkab kechinmalarni chuqur poetik obrazlar bilan ajoyib tarzda ochib bergan.Shoir kuz manzarasi,vaqt o‘tkinchiligi va inson ruhiy og‘riqlarini birlashtirib,kitobxonga kuchli badiiy-esteti ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>

3. Faynberg A. Uchrashuv. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2020.
4. Qosimov B. Zamonaviy o‘zbek lirikasida falsafiy yo‘nalishlar. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2019.
5. Ruzikulova M. She‘riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg‘unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
6. Ziyonet ta‘lim portali materiallari.